

KUSHONLAR DAVLATINING YUKSALISHI VA TANAZZULGA YUZ TUTISHI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Elmurodova Sevinch**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Suyunova Shaxlo**

Annotatsiya: Maqola "Kushonlar davlatining yuksalishi va tanazzulga yuz tutishi" mavzusida Kushonlar imperiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlarini, yuksalish davrini, qudratli iqtisodiy va madaniy yutuqlarini, shuningdek, tanazzul sabablarini tahlil etadi. Kushonlar davlati, miloddan avvalgi 1-asrda yuksalib, Markaziy Osiyo, Hindiston va Eron hududlarida o'zining ulkan ta'sirini o'rnatgan. Biroq, ichki nizolar, tashqi bosimlar va iqtisodiy inqirozlar natijasida davlatning qulash jarayoni boshlanadi. Maqolada davlatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillari tahlil qilinadi, shuningdek, Kushonlar madaniyatining merosi va uning keyingi davrlar uchun ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit So'zlar: Kushonlar davlati, yuksalish, tanazzul, Markaziy Osiyo, Hindiston, iqtisodiy inqiroz, madaniy meros, siyosiy inqiroz, ichki nizolar, tashqi bosim.

Kushon imperiyasi qadimgi Hindistonning mashhur hukmdorlaridan bo'lgan Kanishka davrida buyuk va qudratli davlat bo'ldi. Ko'plab hind afsonalari va rivoyatlari Kanishka ismi bilan bog'liq. Kanishka davrida Kushon imperiyasi Xitoy, Rim va Parfiya bilan raqobatlashib, bunda – Kanishka hukmronligi davrini aniqlash eng jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, bu davr II asrning birinchi choragi. Ko'pchilik g'arb olimlari Kanishka 78 yildan sak erasini boshlagan deb fikr bildiradilar.[1]

Kanishka nomi buddaviy manbalarda ham uchraydi. Rivoyatlarga ko'ra, u o'zining ilk shohlik davrida budda dinini qabul qilgan. Bu farazni numizmatik, epigrafik va arxeologik dalillar ham tasdiqlaydi. Bu shohning ayrim tangalarida Buddha tasvirlangan. Peshovar – Kanishka davridagi Kushon imperiyasi poytaxti – Pushapurada, ya'ni davlatning shimoli-g'arbiy qismida Kanishka ehrom va katta yog'och minora qurdirdi va u yerda ba'zi buddaviy yodgorliklarini joylashtirdi. Shunga qaramay, bu davrda aholining diniy qarashlari hamon turli-tuman bo'lib qolaveradi. Bu vaqtda baqtriya tili ancha keng rivojlanib, u tangalardan kxarashtxi yozuvini siqib chiqardi. Afg'oniston shimolidagi Surx-Kotalda ham Kanishka davriga oid yozuv topilgan. Unda so'z ibodatxona qurilishi haqida boradi.

Syuan Szyan yozishicha, Kanishkaning dovrug'i qo'shni mamlakatlarga yoyilgan va uning harbiy qudratini barcha tan olgan. Bu davrda savdo-sotiq, ayniqsa tashqi savdo yaxshi rivojlandi va shahar hayotida katta o'sish sezildi. Kushon savdogarlari Sharq va G'arb o'rtasida vositachilik qilganlar. Kushonlar o'z ajdodlari – hind-saklar va parfiyaliklardan ba'zi davlat boshqaruv shakllarini qabul qilib olganlar. Sarnatxda topilgan Kanishka yozuvlarida hozirgi Banoras viloyatida shoh vakillari – kshatrpa va maxakshatrpa mansabidagi amaldorlar kengashi haqida aytiladi. Ismlariga qaraganda, ular baqtriyalik bo'lganlar. Bu amaldorlar katta hokimiyat va mustaqillikka ega edilar. Ayniqsa kshatrapalar Kanishka vorislari davrida kuchaydilar. Epigrafik yodgorliklarga ko'ra, buyuk sarkarda bo'lgan Kanishka 23 yil hukm surgan. Harbiy muvaffaqiyatlari tufayli katta hududlarni qo'lga kiritdi. U Kashmirni egalladi. Xitoy va Tibet adabiyotida uning Saketa va Pataliputra hokimlari bilan jangi haqidagi rivoyat saqlanib qolgan. Kanishka Parfiya hukmdorini yengdi. Xitoyliklar bilan bo'lgan urush Qashqar, Xo'tan, Yorkentni egallash bilan tugadi. [2]

Buyuk imperator U Di (89-105 yillar) davrida xitoyliklar Markaziy Osiyoda o'z qudratini tiklab olishga intildilar. Lashkarboshi Bon Chao Kanishkani mag'lub etganidan so'ng bir necha yil

o'tgach, Kanishka Xitoyga yurish qildi. U Xitoy shahzodasini qarorgohida garov sifatida saqlagan degan taxmin ham bor. Hindistondan tashqari Afg'oniston, Baqtriya, Qashqar, Xo'tan, Yorkent ham Kanishka imperiyasi tarkibiga kirdi. Hindistonda Panjob, Kashmir, Sind, Uttar-Pradesh (Sharqda to Banorasga qadar) uning qo'l ostiga o'tdi. Bengaliya va Bixarda ham u zarb etgan tangalar topilgan. Imperiyaning sharqiy qismini maxakshatrapa va kshatrapa boshqarganlar.

Kanishka poytaxt Purushapur (hozirgi Peshovar) da yashagan. Kashmirdagi Kanishkapur shahri Kanishka tomonidan bunyod etilgani haqida taxminlar bor. San'at va adabiyot homiysi bo'lgan Kanishka budda ibodatxonasini qurish uchun eng yaxshi me'mor va binokorlarni jalb qilgan. Uning o'limidan keyin ko'p yillar Xitoy va musulmon sayyohlarini hayratga solib kelgan Peshovardagi supa yunon me'morlari, xususan, Agezila ismlii me'mor boshchiligida qurilgan.

Tarixchi olimlar Kanishkadan keyingi Kushon imperiyasi hukmdorlari sulolasi quyidagi tartibda hukm surgan deb hisoblaydilar: Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva II, Kanishka III, Vasudeva III. Madxura va Sanchi yaqinida topilgan va 24-28 yillarga oid deb hisoblangan hind yozuvida Kanishkadan keyin Vasishka hukmdor bo'lganligi aytilgan. Vasudeva ham uzoq yillar hukm surgan. Uning yozuvlari va tangalari Panjob va qo'shni viloyatlardan topilgan. III asrda buyuk imperiya mayda davlatlarga bo'linib ketdi. Vasudeva III davridayoq Kushon davlatining inqirozga uchragani ayon bo'ldi. Uning avlodlari qudratli Sosoniylar va Eron davlatlari bilan kurash olib borgan. Ayrim olimlar III asrning o'rtalarida Shopur I (241-272) hukmronligi davrida Kushon davlati Sosoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan deb aytadilar.

Ammo X asrda yashab o'tgan arab tarixchisi Tabariyning yozishicha, Sosoniylar sharqda Seyston, Abrashahr, (Xurosonning bir qismi), Marv, Xorazm, Balx va Xurosonning chekka o'lkalarigacha egallab olganlar. Marvdan Forsga qaytishda Kushon va boshqa davlatlar hukmdorlari unga itoat qilishlarini bildirganlar. Kushon imperiyasining so'nggi yillari uning ixtiyorida faqat Gandxara viloyati qolib, shu tariqa qadim Sharqdagi eng yirik imperiya siyosiy maydonni tark etdi.

Kushon davlati qadimgi davr madaniyati va siyosiy – iqtisodiy hayotida o'ziga xos iz qoldirdi. Bir imperiya tarkibida turli xalqlarning birlashuvi, madaniyatlar almashuviga olib keldi. Nafaqat imperiya ichkarisidagi xalqlar, balki tashqaridagi Rim hamda Fors davlatlari bilan ham aloqalar o'rnatildi. Imperiya turli an'analari asosida rivojlandi. Mahalliy an'analarni saqlagan holda antik davr yutuqlari ham o'zlashtirildi. Imperiyaning etnik jihatdan turlicha bo'lganligi numizmatik tadqiqotlar bilan ham isbotlandi. Bu davr tangalarida eron, hind, ellin yozuvlari uchraydi. Bu topilmalarga ko'ra hind ma'budalari orasida Shiva, Maxasena, Vishkxu, Skandakumar ismlari keng tarqalgan. Keyingi uch ism Shivaning o'g'li hisoblangan urush ma'budasi Shivaitiga tegishli. Kanishka tangalarida Buddaning tasviri ham bo'lgan. Old Osiyo va Ellin xudolari Gelios, Gefest, Selena alohida guruhni tashkil etadi. Ba'zi olimlar bu nomlar turli-tumanligi mamlakatning tarixiy jarayoniga bog'liq deydilar. Bundan tashqari tangalar faqat pul bo'lib qolmay, balki g'oyaviy qurol vazifasini ham o'tagan. Chunki bu turli elatlardan iborat imperiyani birlashtirish yo'llaridan biri edi.

Epigrafik materiallar bu davrdagi diniy vaziyat haqida dalolat beruvchi eng ishonchli manbadir. Bu maskanlardan tosh va qoyalarga o'yib yozilgan ma'lumotlar ko'plab topilgan. Kushonlar davrida hind sivilizatsiyasi markaziy va sharqiy Osiyoga tarqala boshlagan. Bu davrda ilk bor buddizm Xitoyga kirib borgan (61-67 yillar). Buddizmning Hindiston tashqarisida tarqalishi uning mazmun jihatidan o'zgarishiga olib keldi. Kanishka davrida mazkur din mohiyatan va shaklan taraqqiy etdi. Bu oqim buddaviy ta'limotini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, diniy erkinlik yo'lida ish olib borgan. Mazkur oqim haqidagi matxura yozuvida ma'lumotlar saqlangan bo'lib, ular diniy marosimlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu kabi yozuv gandxara san'ati deb atalgan.

Chunki Budda va Budxisata tasvirlangan toshlardagi yozuvlar asosan Gandxara viloyatidan ko'plab topilgan. Shuningdek, brahmanizm ham o'z mavqeini saqlab qolgan. Yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, brahmanlar turli diniy marosimlar o'tkazganlar. Bu xususda sobiq sho'ro, xususan o'zbekistonlik arxeologlarning dalillari diqqatga sazovor. Surx-Kotal, Matxura va Xalchayon topilmalarini qiyoslab o'rganish natijasida ularning fikralari hind arxeologlari xulosalariga muvofiq keldi. Uzoq umr ko'rgan Kushon davlati boshqa davlatlar tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Kushon hukmronligida xalqaro aloqalar rivoj topdi. Savdogarlar Misr, hatto ba'zi G'arb mamlakatlariga ham yetib bordilar. O'rta Yer dengizini Sharq bilan bog'lagan Buyuk ipak yo'li ham aynan mana shu davlat hududidan o'tgan edi.[3].

Bu davr Janubiy Hindistonda savdo-sotiq rivojlandi, madaniyat yuksalib, shaharlar ko'paydi. Xususi yer egaligi yanada taraqqiy etdi. Shoh o'z yerlaridan bir qismini xususi shaxs va braxmanlarga in'om qilar, bunday yerlar soliqdan ozod etilardi. Feodal tizim dastlab Dekanda shakllana boshladi. Yerni amaldorlar bilan birgalikda dehqonlarga in'om qilish haqida I asr Dekan qo'lyozmalarida qayd etilgan. Ajanta, Amavarati va Nagarjunikandada topilgan mashhur haykalchalar, ilk tamil dostonlari bizga Dekan va Janubiy Hindiston aholisining hayoti va mamlakatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Kushon davlati siyosiy jihatdan parchalanib ketganidan so'ng, maydonga qudratli guptalar imperiyasi chiqdi. Bu davrga kelib kushonlarning so'nggi vakillari G'arbiy Panjobda kichik hududgagina egalik qilardilar. Gujorat, Rojaston va Malvada kshatraplar hukm surar, Gang vodiysida, jumladan, respublika toifasidagi davlatlar mavjud edi. Magadxada birin-ketin ko'plab sulolalar almashib, ular Shimoliy Hindistonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida ancha jiddiy o'rin tutdilar.

Hindiston qadimgi sivilizatsiyasining gullagan davrida guptalar davlati 200 yildan ortiq hukm surdi. Bu davlat Hindiston iqtisodiy hayotida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Magadxada hunarmandchilik keng rivojlandi. Qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlardi. Magadxas asosiy metall yetkazib beruvchiga aylandi. Bundan tashqari, u budda dinining muqaddas qadamjoyi sifatida mashhur bo'ldi. Homiylar va Buddaga e'tiqod qiluvchilardan tushgan mablag' yangi ehromlar barpo qilish uchun sarflandi.

IV asrning birinchi yarmida Magadxas gullab yashnadi. U guptalar imperiyasining siyosiy markaziga aylandi. Bu imperiya mamlakat tarixida chuqur iz qoldirdi. Mazkur sulola asoschisi Chandragupta guptalardan bo'lgani uchun davlat uning nomi bilan ataldi. Guptalar davlatining bosh davri 320 yillarga to'g'ri keladi. Shu davrdan sulolaning barcha vakillari nomiga "gupta" qo'shimchasi qo'shildi. Chandragupta I Maxaradxiraja, ya'ni «shohlar shohi» nomini oldi. Bundan, u mustaqil hukmdor bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. U o'zining qisqa muddat hukmronligi davrida davlat va sulola obro'sini oshirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, u qo'shni lichchxaviylar sulolasi malikasiga uylanib, katta siyosiy yutuqqa erishdi. Uning rafiqasi Kumara Deva haqida muayyan ma'lumotlar mavjud.

Bu davrda zarb etilgan tangalarda ham shoh o'z rafiqasi bilan birga tasvirlangan. Lichchxaviylar o'ta qadimgi qabila bo'lib, ular hozirda Bixar shtatining shimoliy qismini egallaganlar. Bu nikohdan so'ng guptalar mavqei yanada oshishi, sharqiy chegaralardagi kuchlar nisbati o'zgarishiga olib keldi. Manbalarda yozilishicha, Chandraguptaning o'g'li Samudraguptaning onasi lichchxaviylardan bo'lgan. Shunday qilib, bu qarindoshlik rishtalari ikki katta davlatni birlashtirib, kudratli imperiyaga aylanishiga olib keldi. Yana shu yozuvlarda Samudragupta ikki davlat vorisi sifatida ko'rsatiladi. U taxminan 380 yillarda vafot etgan.

Tarixchilar Samudraguptani buyuk sarkarda sifatida tilga oladilar. U ham mauriylar kabi Hindistonni birlashtirishga intilgan. Samudragupta yutuqlari haqida Ollohobod ustunlarida ham qaydlar mavjud. U hukmdorlikni Gang vodiysi davlatlarini bosib olishdan boshlagan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u to'qqiz shohni mahv etib, mol-mulkini o'zlashtirgan. Saroy shoiri yozgan qasidasida Samudragupta Janubiy Hindistonning 12 davlatini bosib olganligi eslatilgan. Hind tarixchilari Sinxa va Banerjilar fikricha, chegara boshliqlari orasida viloyat

boshqaruvchilari bo'lib, ular Samatata (janubi-sharqiy Bengaliya), Davaka (Assam), Kamarupa (Yuqori Assam), Nepal, Kartpishura (Sharqiy Panjobdagi Jalandhar okrugi) dan iborat edi. Samudraguptaning zamondoshlariga ta'sirini, hatto Shimoli-G'arbiy Hindiston, Malva, Katxiyavar hokimlari ham e'tirof etganlar. Uning shuhrati Hindistondan tashqariga ham yoyilib, Shri-Lanka oroliga qadar yetib bordi. Seylon shohi Megxavarni (352-379) Samudraguptaga elchi yuborib, muqaddas botxi daraxtidan uning uchun ibodatxona qurishga ruxsat olgan. Samudragupta o'z talabalarini ashvamedxa, ya'ni ot qurbon qilish marosimi bilan nishonlagan. Hukmronligi so'nggida u Shimoliy Hindistonning deyarli barcha hududini egallab oldi. U o'z yerlarini kengaytirishda muayyan muammolarga duch kelgan. Shuning uchun ham u asosiy e'tiborni mamlakat ichkarisi rivojiga qaratgan.

Epigrafik ma'lumotlarga ko'ra, Samudragupta vafotidan so'ng taxt uning o'g'li – Chandragupta II ga o'tib, u 413 – 415 yillarda hukm surgan. Qadimgi hind mualliflaridan Visakxaddatning «Devichandragupta» (VI asr) asarida, Chandragupta II hukmronligida guptalar yanada gullab yashnagan deb aytiladi. Lekin u akasi Ramagupta bilan shiddatli janglardan so'nggina hokimiyatni egallay oldi. Aka-uka orasidagi bu kurash akasining o'limi bilan tugab, Chandragupta II akasining xotini – Dxuru vadeviga uylanadi. Chandragupta II uning kshatraplar bilan janglarida qozongan g'alabalari ham unga muvaffaqiyat keltirdi. V asr boshlarida g'arbiy kshatraplar hududida Chandragupta II tangalari muomalaga kiritildi. Bundan tashqari u g'arbga yurishlarida bir necha viloyatlar, jumladan sohil bo'yi yerlarini bosib oldi. Shu tarzda guptalar muhim savdo-sotiq markazlariga ega bo'lib, natijada tashqi aloqalar kengaydi.

Chandragupta II faoliyatiga oid tarixiy hujjat – Dehlidagi mashhur temir ustun yozuvlari. Unda Vanga (Sharqiy Bengaliya) va Baxlika (Shimoliy Afg'oniston) ni egallab olgan hukmdor – shoh Chandra haqida hikoya qilinadi. Yozuvlarda aytilishicha, Chandragupta II yetti devon osha shimoli-g'arbga yurishlar uyushtirgan.

O'sha davr tangalaridan Chandragupta II pul islohatlarini amalga oshirganligi ma'lum. Undan avval hukmdorlar faqat oltin tanga zarb etgan bo'lsalar, Chandragupta II muomalaga kumush va mis tangalarni ham kiritdi. Uning kumush tangalarida Shiva xudosining muqaddas qushi – Garuda tasvirlangan. Bu tasvir mis tangalarda ham borligini e'tiborga olib, Chandragupta II Vishnu diniga e'tiqod qilgan degan xulosa qilish mumkin. «Vikramaditya» («qudrat quyoshi») unvonini olgan Chandragupta II hind tarixidagi eng mashhur shaxslardan edi. Ko'plab shoir va olimlar ijodini uning faoliyatiga bog'laydilar. Hind adabiyotida keng ma'lum «Shoh Vikramadityaning to'qqiz qimmatbaho buyumi» afsonasi guptalar davridagi madaniy yuksalish va saroyning ma'naviy muhitidan dalolat beradi. To'qqiz dur ichida to'qqiz alloma tasviri tushirilgan bo'lib, ular orasida Kalidasa, Kashapanaka, Shanku, Vetalabxatga, Gxatakarpara tabib Dxanvantori, tilchi olimlar – Amarasimxa, Varuchari, falakiyot olimi Varaxamixiralar bor edi. «Vikramaditya» faxriy unvoni unga ilm va fan sohasidagi homiyligi uchun berilgan edi.

Chandragupta II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kumaragupta o'tirdi (415-455). U ham otasi kabi imperiya qudratini saqlab qolishga intildi. Sulolaning keyingi vakili Skandagupta (455-467) ham mamlakatni butunligini saqlab qoldi. Manbalarda u sulola xaloskori sifatida tilga olinadi. Guptalarning so'nggi vakili Budxagupta 20 yildan ortiq (475-497) hukm surdi. Uning vafotidan so'ng xun-eftalitlarga qarshi urush boshlanib ketdi.

Mashhur xitoy sayyohi Fa Syan Chandragupta II hukmronligi davrida Hindistonga sayohat qildi. Uning yo'li Gobi cho'li va Xo'tanning tog'li tumanlari, Pomir tog' etaklari, Svat va Gandxara orqali o'tdi. U Hindistonning Peshovar, Matxura va boshqa yirik shaharlarini ziyorat qildi. Uning asosiy maqsadi buddaviylik diniga oid osori atiqalarni izlab topishdan iborat edi. Sayyoh hayoti haqidagi esdaliklariga 399-414 yillar voqealarini kiritgan. U Pataliputrada uch yil yashab, bu vaqtda sanskrit tilini o'rgandi. Hindistonning madaniy markazi bo'lgan bu shahar sayyohni lol qoldirdi. Shahar kasalxonasida faqirlarga dori-darmon va oziq-ovqat bepul berilardi. Uning yozishicha, bu o'lka zich aholisi baxtli turmush kechirgan. Jinoyatlarning og'ir-yengilligiga

qarab jinoyatchiga jarima solinar, qayta jinoyat qilgan shaxsning o'ng qo'li kesilardi. Olingan hosilning bir qismi davlatga soliq sifatida topshirilar edi. Fa Syanning xabar berishicha, Panjob va Bengaliyada budda dini taraqqiy etgan.

Kushonlar davlati o'zining yuksalish davrida o'zi joylashgan hududlarda kuchli iqtisodiy, madaniy va siyosiy ta'sir ko'rsatgan. Miloddan avvalgi 1-asrda tashkil topgan ushbu imperiya Markaziy Osiyo, Hindiston va Eronni qamrab olgan, savdo, madaniyat va diniy qarashlar sohasida keng o'zgarishlarga olib kelgan. Kushonlar hukmdorlari o'zlarining markazlashgan siyosiy tizimi va iqtisodiy rivojlanishga alohida e'tibor berishgan, bu esa imperiyaning o'z vaqtida qudratli davlatga aylanishiga yordam bergan. Biroq, davlatning tanazzuliga bir qator ichki va tashqi omillar sabab bo'ldi. Ichki nizolar, siyosiy beqarorlik, tashqi bosimlar va iqtisodiy inqirozlar Kushonlar imperiyasining qulashiga olib keldi. Davlatning qulashiga sabab bo'lgan bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, siyosiy zaiflik, ijtimoiy tanglik va tashqi tahdidlarning kuchayishi natijasida imperiya asta-sekin zaiflashdi.

Shu bilan birga, Kushonlar davlati o'zining madaniy merosi bilan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, uning san'ati, diniy qarashlari va savdo aloqalari keyingi davrlar uchun katta ta'sir ko'rsatgan. Imperiyaning yuksalish va tanazzul jarayonlari tarixiy nuqtai nazardan o'rganilishi, nafaqat Kushonlar davlati, balki umumiy tarixshunoslik uchun muhim darslar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLODI.
3. F.BOYNAZAROV QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEKNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.

13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
21. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san’ati . Toshkent .2018.
22. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351